

- 11.4 Nizoli vaziyat yuzaga kelganligi to‘g‘risida uni tezda va samarali hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan barcha tomonlar xabardor qilinadi.
- 11.5 Nizoni hal qilishda adolat va halollik tamoyillariga rioya qilinadi.
- 11.6 Tashqi tuzilmalar bilan nizolar yuzaga kelgan taqdirda, xodimlar/o‘qituvchilar, birinchi navbatda, Universitet va talabalar manfaatlarini ko‘zlab harakat qiladilar.
- 11.7 Talabalar bilan o‘zaro munosabatga kirishganda yuzaga keladigan joriy nizolarga nisbatan ularni tez va adolatli hal qilish uchun muammolarni hal qilishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llaniladi.
- 11.8 Universitet xodimlari/o‘qituvchilari talabalarga nisbatan o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilishga haqli emaslar.
- 11.9 Universitet bo‘linmalari o‘rtasida nizoli vaziyat yuzaga kelgan taqdirda, nizolarni hal qilishning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib butun Universitet manfaatlarini hisobga olish hisoblanadi.
- 11.10 Bo‘linmalarning hech biri nizoli vaziyatni o‘z foydasiga hal qilish uchun mutlaq huquqdan foydalana olmaydi.

## **XII. Sovg‘alar va xizmatlar**

- 12.1 Xodimlar/o‘qituvchilarga talabalardan biron bir shaklda sovg‘a yoki xizmatlar qabul qilish yoki berish taqiqlanadi.
- 12.2 Xodimlar/o‘qituvchilarga Universitet hamkorlari, kontragentlar yoki boshqa uchinchi shaxslardan qiymati 1 BHM dan ortiq bo‘lgan sovg‘alar yoki xizmatlarni qabul qilish yoki topshirish tavsiya etilmaydi.
- 12.3 Sovg‘alarni (xizmatlarni) olish yoki topshirish nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan yiroq bo‘lish kerak. Pulni har qanday shaklda sovg‘a sifatida olish, miqdoridan qat’i nazar, qat’iyan man etiladi.
- 12.4 Agar xodimga/o‘qituvchiga ma’lum bir vaziyatda (masalan, taqdimotda yoki boshqa yirik ommaviy tadbirda) Universitetning rasmiy vakili sifatida sovg‘a yoki xizmat taqdim etilsa va rad etish hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish borasida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lsa, mazkur sovg‘ani qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi, ammo bu haqda bevosita rahbarni xabardor qilish kerak.
- 12.5 Universitet tomonidan o‘z mijozlari va hamkorlariga taqdim etiladigan sovg‘alar va xizmatlar uning alohida xodimi/o‘qituvchisi tomonidan emas, balki butun Universitet nomidan topshiriladi.
- 12.6 Sovg‘alar sifatida Universitet ramzları tushirilgan predmetlardan foydalangan ma’qul